

MILLIY TARIXIMIZNI CHUQUR O'RGANISH - MILLIY VA JANGOVAR RUHNI RIVOJLANTIRISH UCHUN MUSTAHKAM TAYANCHDIR

Boboyev Xurshid Yusupovich

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi, dotsent*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini rivojlanirish, milliy tariximizni, buyuk ajdodlarimizning jasoratini, ulug' sarkarda bobolarimizni matonatini va boy milliy qadriyatlarimizning ulug'vorligini chuqur o'rganishimiz - bo'lajak zaxiradagi ofitserlarimizni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini rivojlanish samaradorligining yanada oshishiga juda katta o'z hissasini qo'shishi mumkinligi, jadidchilik harakati namoyondalari, ularning jasoratlari va fidoyiliklari haqida yoritib o'tilgan.*

Tayanch so'zlar: *harbiy vatanparvarlik, jadidchilik, milliy g'urur, milliy o'zlik, istiqlol, tarix, milliy va jangovar ruh, shahidlar, mafkuraviy immunitet, jadidchilik g'oyasi, Qurolli Kuchlar, fuqarolik jamiyati, ta'llim, harbiy xizmatchi.*

ГЛУБОКОЕ ИЗУЧЕНИЕ НАШЕЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИСТОРИИ- ПРОЧНАЯ ОСНОВА ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО И БОЕВОГО ДУХА

Бобоев Хуршид Юсупович

*старший преподаватель учебного центра военной подготовки
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доцент*

Аннотация. *В данной статье рассматривается развитие механизма воспитания будущих офицеров запаса в национальном и боевом духе, глубокое изучение нашей национальной истории, мужества наших великих предков, стойкости наших прадедов - полководцев и величия наших богатейших национальных ценностей может внести огромный вклад в дальнейшее повышение эффективности развития механизма воспитания будущих офицеров запаса в национальном и боевом духе, проявления джадидистского движения, их подвиги и о его преданности делу.*

Ключевые слова: *военный патриотизм, джадидизм, национальная гордость, национальное самосознание, независимость, История, национальный и боевой дух, мученики, идеологический иммунитет, идея*

джаидизма, вооруженные силы, гражданское общество, образование, военнослужащий.

AN IN-DEPTH STUDY OF OUR NATIONAL HISTORY IS A SOLID FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF A NATIONAL AND MILITANT SPIRIT

Boboyev Khurshid Yusupovich

Senior Teacher of the military training center of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, associate professor

Annotation. This article highlights the development of the mechanism for training future reserve officers in a national and combat spirit, the deep study of our national history, the courage of our great ancestors, the perseverance of our great - grandfathers and the grandeur of our rich national values-the fact that the mechanism for training future reserve officers in a national and combat spirit can make a huge contribution to

Keywords: military patriotism, jadidism, national pride, national identity, independence, history, national and fighting spirit, martyrs, ideological immunity, jadidism idea, armed forces, civil society, education, military service.

KIRISH

Butun dunyoda harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilimlar, ilg'or xorijiy tajriba, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini rivojlantirishgaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi ta'lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizada yosh-avlodni ya'ni vatanparvar avlod qilib tarbiyalash eng birinchi masala sifatida qaralmoqda. Ma'lumki, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida [1] yangi avlod kadrlarida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, ma'naviy barkamol, ma'naviy-ruhiy va intellektual, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega, demokratik islohotlarni chuqur anglagan va fuqarolik jamiyatini qurishda, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash kabi ustivor vazifalar etib belgilandi. Natijada, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari kengaytirildi [1]. Dunyoning turli mintaqalarida milliy g'urur, milliy va jangovar ruh,

mafkuraviy yaxlitlik rivojining yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli davom etayotgan qurolli to‘qnashuvlar harbiy xizmatchini harbiy burchidan mahrum qilishi mumkin. Xalqaro miqyosda bo‘lajak zahiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini ishlab chiqish va baholash, harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ijtimoiy muhit talablari bilan integratsiyalashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etdi strategik ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoni uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg‘or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jangovar ruh – harbiy xizmatchilar va bo‘linmalarning og‘ir va murakkab vaziyatda jismoniy va ruhiy zo‘riqishlarni yengib o‘tib, jangovar vazifani bajarishga shayligini hamda g‘alabaga bo‘lgan ishonchini anglatadigan tushuncha. Jangovar ruh bu harbiy ta’lim ishlari nazariyasi va amaliyotining asosiy toifalaridan biri bo‘lib, harbiy xizmatchi, bo‘linma, bo‘linma, birlashma, birlashma va qurolli kuchlarning ma’nnaviy asoslari va tamoyillarini g‘alaba qozonish va amalga oshirishga doimiy e’tibor berishga mafkuraviy va ma’nnaviy tayyorligini anglatadi.

Milliy ruh – bu yengilmas kuch. “... Milliy ruh kuchli bo‘lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo‘ladi. Kelajakda harbiy bo‘lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy rujni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini qayerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. O‘z oilasi, mehribon ota-onasi hamda el-yurtimizning ishonchi, g‘amxo‘rligi va e’tiboridan oladi. Yoshlarga hamisha o‘rnak va namuna bo‘lib kelayotgan siz kabi chinakam fidoyi harbiylardan oladi”, – dedgan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev [6].

Yot g‘oyalarga qarshi immunitet – harbiy xizmatchi va bo‘linmalar shaxsiy tarkibini turli salbiy axborotlar ta’siridan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi.

Dunyoning ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida konseptual yondashuvlar asosida bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini uzluksiz ishlab chiqish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bo‘lajak zahiradagi ofitserlarni milliy-jangovar ruhda tarbiyalashning shakl va uslublaridan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish, ijtimoiy muhit talablari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ta’lim tizimi modernizatsiya qilinayotgani yuzasidan ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va harbiy ruhda, jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini ishlab chiqish uchun tizimli tahlil qilinib, qulay sharoitlar yaratilmoqda. Zamonaliviy globallashuv va

shiddat bilan o'zgarib borayotgan murakkab va keskin davrda mamlakatimizning bo'lajak zahiradagi ofitserlarining milliy va jangovar ruhini kamol toptirish, ma'naviyatini yuksaltirish va turli tahdidlardan asrash, xalqaro miqyosda ro'y berayotgan jarayonlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni harbiy tayyorgarlikka, ma'naviy-mafkuraviy ishlarga va jismoniy tarbiyaga jalb etishga xizmat qilmoqda. Bo'lajak zaxiradagi ofitserlar o'rtasida vatanparvarlik va harbiy burch tuyg'ularini targ'ib qilish, ularning dunyoda ro'y berayotgan harbiy-siyosiy voqealar haqidagi bilimini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak zahiradagi ofitserlar dunyoda ro'y berayotgan voqealardan xabardor bo'lishi, turli vaziyatlarda tezkor va mustaqil ravishda nostandard qarorlar qabul qilish malakasini oshirishga qodir bo'lishi kerak. Butun jamiyatimizda bo'lgani kabi Qurolli Kuchlarimiz faoliyatida ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mamlakatimiz mudofaasini yuksak harbiy vatanparvarlik, milliy va jangovar ruhga ega harbiy xizmatchilarsiz tasavvur qilish qiyin.

Hozirgi kunda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarimizni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashning eng asosiy maqsadlari - bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda milliy g'urur va ma'naviy fazilatlarga tayanadigan barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta'minlash, murakkab vaziyatlarga nisbatan bardoshlilikni, yuksak jangovar va milliy ruhni rivojlantirish hamda ularda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash ekanligi zarurat bo'lib qoldi.

Bu borada milliy tariximizni yodga olmasak bo'lmaydi. Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur, — dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoev Miromonovich [3]. Prezidentimiz ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida O'zbekiston mafkuraviy sohada raqobatga tayyormi, degan savolni berdi. Uning aytishicha, mamlakat madaniy diplomatiyani kuchaytiradi. Shuningdek, o'zbek xalqi jadidlar ko'rsatgan yo'ldan og'ishmay borishi kerakligi ta'kidlandi. "Biz bugungi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi?" Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "o'zbekistonlik", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi", — dedi Shavkat Mirziyoev [4]. Prezidentimiz ta'kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba'zan hatto mamlakatning o'zida ham Konstitutsiya va

qonunlarga zid pozitsiyalar ilgari surilayotgani, jumladan, diniy e'tiqod niqobi ostida yoshlarni ma'rifatga emas, jaholatga undash holatlari paydo bo'lmoqda. Bunday vaziyatda jamiyatda jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishni kuchaytirish, ehtiyotkorlik va ogohlikni oshirish lozim [4]. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigida "Bugungi anjumanimizga tashrif buyurgan nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillariga, shuningdek, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Vengriya, AQSh, Germaniya, Niderlandiya, Shvesiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan taniqli olim va ekspertlarga ushbu anjumanni tashkil etish tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaganliklari uchun samimiyl tashakkur bildiraman. Shu nuqtai nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajodolarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o'rni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni buniyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi konferensianing asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega. Barchamizga ayonki, "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar. Afsuski, o'sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug'vor maqsadlarni amalga oshirishga yo'l bermadi. Yurtimizda ushbu yo'nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, har yili 31 avgust – Qatag'on qurbanlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda. "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag'on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo'limlari faoliyat olib bormoqda. Ana shu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidchilik tarixi muzeyi tashkil etilmoqda", — deb ta'kidlab o'tdi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev [5]. Bu murakkab davr tarixiga oid ilmiy va badiiy asarlar, "Tarixning noma'lum sahifalari", "Qatag'on qurbanlari" nomli ko'p jildli xotira kitoblari nashr etilmoqda. Badiiy va hujjatli filmlar, ko'rsatuвлar tayyorlanib, namoyish qilinmoqda. Xalqaro konferensiyanlar, ko'rgazmalar va davra suhbatlari, xotira kechalari, seminarlar muntazam o'tkazilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston Oliy sudi tomonidan 1030 dan ziyod mustabid tuzum qatag'oniga uchragan

vatandoshlarimiz nomi oqlangani tarixiy adolatni tiklash yo'lidagi yangi qadam bo'ldi. Ayni vaqtda, yurtimizda har yili avgust oyini "Qatag'on qurbanlarini yod etish oy'i" sifatida o'tkazish, fidoyi vatandoshlarimiz va ularning avlodlari yashagan va yashayotgan xonadonlarga yodgorlik lavhalari o'rnatish, ularning vorislari hamda yaqin kishilariga hurmat-e'tibor ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Mahalla idoralarida "Qatag'on qurbanlari xotirasi burchaklari" va "Mahalla xotira kitoblari"ni tashkil etish, har yili kamida 100 nafar qatag'on qurban ni hamda jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiradigan to'plam tayyorlash rejalashtirilgan." [5] deb ta'kidlab o'tdi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy kadrlarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish, turli murakkab va og'ir vaziyatlarga nisbatan ruhiy bardoshlilikini, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash orqali milliy armiyamizning jangovar shayligi va qudratini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-sentabrdagi PQ-371-son Qarori bilan "Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" konsepsiyasi [2] tasdiqlandi.

Harbiy xizmatchilarda milliy g'urur va ma'naviy fazilatlarga tayanadigan barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta'minlash, murakkab vaziyatlarga nisbatan bardoshlilikni, yuksak jangovar ruhni tarbiyalash hamda ularda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash – axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va jangovar ruhni ta'minlashning maqsadi hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan qurolli mojarolar tahlilini ko'rib chiqadigan bo'lsak, harbiy xizmatchilarda milliy g'urur, jangovar va milliy ruh, mafkuraviy immunitet rivojlanmaganligi uchun boshqa davlatlarning harbiy xizmatchilari qurolli to'qnashuvlar oqibatida o'zining harbiy burchini, vatanini asrab avaylashni va harbiy xizmat majburiyatlarini unutib yubormoqdalar. Dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan Qurolli to'qnashuvlarda boshqa davlatlarning harbiy xizmatchilarida milliy g'urur, jangovar va milliy ruh, mafkuraviy immunitet rivojlanmaganligi oqibatlaridir.

Vatan himoyachilarining yuqorida ko'rsatilgan oqibatlarga yetib kelishlarining asosiy sababi: hozirgi globallashuv davrida va tezkorlik o'zgarib borayotgan bugungi axborot xuruji va kiberterrorizm tahdidlari, mafkuraviy tahdidlar ta'sirida milliy va jangovar ruhdagi tarbiyaning ayrim Vatan himoyachilarida pasayib borayotganligi; ayrim Vatan himoyachilarida milliy va jangovar ruhning umuman shakllanmaganligi yoki rivojlanmaganligi; ayrim Vatan himoyachilarida mafkuraviy immunitetning globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz-

berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlarlarga qarshilik ko'rsata olmaydigan darajada pastligi; ruhiy immuniteti shakllanmaganligidan ayrim Vatan himoyachilari tomonidan internet tarmoqlarida tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalarga yo'g'rilgan foto va video ma'lumotlarga ishonuvchanligi; Vatan himoyachilari tomonidan so'nggi vaqtda jahon va mintaqadagi harbiy – siyси vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka bo'lgan xavf-xatar va tahdidlarni umuman bilmasligi. Har bir mamlakatning kuch-qudrati, dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni, siyosiy-iqtisodiy rivoji uning yosh kadrlari salohiyati bilan belgilanadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimida keyingi yillarda juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan, mintaqalar va davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda Respublikamizda yuksak vatanparvar kadrlarni tayyorlash ham hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shunday ekan mazkur masalani barcha rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyoti o'rganilishi zarur, shuningdek, ular tomonidan so'nggi yillar davomida erishilgan natijalar hamda dunyoda yuzaga kelayotgan harbiy siyosiy vaziyatni inobatga olgan holda, zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishda ham innovatsion yondashuv asosida zamonaviy ilmiytadqiqot ishlarini amalga oshirish aktual muammo sifatida qarashni talab etadi. Ayni damda zamonaviy davr o'zining beqarorligi, tez o'zgaruvchanligi, noaniqliklari, murakkabliklari bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda barcha jabhalarda tizimli o'zgarishlar davom etmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning milliy va jangovar ruhda tarbiyalash muammosi "harbiy vatanparvarlik", "milliy g'urur", "milliy ruh" va "jangovar ruh" tushunchasini o'rganish mazmunida qaralishi kerak bo'lib, mazkur tushuncha ilmiy adabiyotlarda his-tuyg'u, majburiyat, tayyorlik (psixologik), g'oya, anglash sifatida qaraladi. Tushunchaning mohiyatini aniqlashda yondashuvlarning bunday xilma-xilligi, avvalo, mazkur ijtimoiy hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan bog'liqdir. Milliy tariximizni, buyuk ajdodlarimizning jasoratini, ulug' sarkarda bobolarimizni matonatini va boy milliy qadriyatlarimizning ulug'verligini chuqur o'rganishimiz - bo'lajak zaxiradagi ofitserlarimizni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini rivojlanish samaradorligining yanada oshishiga juda katta o'z hissasini qo'shishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022-yil 8-sentyabrdagi PQ-371-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish tog‘risida”gi Konsepsiyasi.
3. <https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoev-milliy-tarixni-milliy-ruh-bilan-yaratish-kerak-aks-holda-uning-tarbiyaviy-tasiri-bulmayd>
4. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/>
5. <https://president.uz/uz/lists/view/6919>
6. <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/218>